

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

YOROV KAMOLIDDIN BEGALIYEVICH

**MAHALLIY SOYA MOYLARINI RAFINATSIYALASH
TEXNOLOGIYASINI YANGICHA USULLARDA TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.17 - Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda
qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Yorov Kamoliddin Begaliyevich

Mahalliy soya moylarini rafinatsiyalash texnologiyasini
yangicha usullarda takomillashtirish3

Ёров Камолитдин Бегалиевич

Совершенствование технологии рафинации местных
соевых масел новыми способами.....21

Yorov Kamoliddin

Improving the technology of refining local soybean oils
with new methods39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works42

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

YOROV KAMOLIDDIN BEGALIYEVICH

**MAHALLIY SOYA MOYLARINI RAFINATSIYALASH
TEXNOLOGIYASINI YANGICHA USULLARDA TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.17 - Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda
qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyada B2024.2.PhD/T4608 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bstu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismatov Sunnatullo Shamsullayevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Maxmudov Rafiq Amonovich
texnika fanlari doktori, professor

Salixanova Dilnoza Saidakbarovna
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «06» 12 soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, K.Murtazoyev ko'chasi 15-uy. Tel.: (+99865)223-78-84; faks: (+99865)223-78-84; e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 397 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, K.Murtazoyev ko'chasi 15-uy. Tel.: (+99865)223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «22» 11 kuni tarqatildi.
(2025 yil «21» 06 dagi № 9 raqamli reestr bayonnomasi).



S.F.Fozilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

A.T.Oltiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

I.B. Isabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda, bugungi kunda aholi sonining oshishi bilan o‘simlik moylariga bo‘lgan ehtiyoj ham tobora ortib bormoqda. Bu yo‘nalishda turli moyli xomashyolardan moy ajratib olish, ularni o‘zaro aralashtirib turlarini kengaytirish va yog‘larni qayta ishlash sohalari tobora rivojlanib bormoqda. Shular jumlasiga mahalliy sharoitlarda yetishtirilgan soya navlaridan moy ajratib olish texnologiyasini ham misol tariqasida keltirib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli mahalliy soya xomashyolaridan o‘simlik moylarini ishlab chiqarishda ularning yangi texnologiyasini yaratish, hamda soya moyining sifatini oshirish va tayyor mahsulotlarning oziqaviy xavfsizligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega.

Jahonda noan‘anaviy moyli xomashyo asosida olinadigan mahsulotlar sifatini oshirish va oziqaviy xavfsizligini ta‘minlash maqsadida mahalliy sharoitlarda yetishtiriladigan soya urug‘laridan turli usullar bilan o‘simlik moylari ishlab chiqarish yo‘nalishidan tadqiqodlar rivojlanib bormoqda. Bu yo‘nalishda yangi intensiv va resurs tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish va sanoatga joriy etish, chiqindisiz ishlab chiqarishni tashkil etish, mahalliy sharoitlarda yetishtirilgan soya urug‘laridan samarali foydalanish masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda mahalliy soya urug‘i navlaridan olinadigan moylarning sifati va oziqaviy xavfsizligini oshirish, ularni qayta ishlash jarayonida sodir bo‘ladigan fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarni me‘yordan ortmasligiga oid izlanishlar olib borilmoqda. Yangi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida (2017-2030 yy.) “...tarmoqlarni rivojlantirish, sanoatni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish, energiya va resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash import o‘rnini bosuvchi raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish...”¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun soya urug‘larining mahalliy navlaridan olinadigan o‘simlik moylarining sifatini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish hamda import qilinadigan moylarni mahalliyashtirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 12-yanvar PF-24 “Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-yanvardagi PQ-3484-son “Yog‘-moy tarmog‘ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 29-avgustdagi 251-son “2015-2020-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasi aholisining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash konsepsiyasini va chora-tadbirlar kompleksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni

vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalarni innovatsion rivojlanish agentligining VII. “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turli navli soya urug‘laridan o‘simlik moylarini ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash bo‘yicha dunyo olimlaridan: J.P.Chekky, M.J. Yedward, G.R.List, N.S.Arutyunyan, V.V.Beloborodov, A.I.Glushenkova, G.V.Zaremba-Raseevich, V.V.Klyuchkin, V.M.Kopeykovskiy, Ye.P.Kornena, A.N.Lisitsin, A.L.Markman. V.P.Rjexin, A.G.Sergeev, V.G.Sherbakov, mamlakatimizda esa A.T.Ilyasov, Yu.K.Kadirov, K.X.Majidov, N.K.Majidova, R.M.Mirzakarimov, M.A.Raximdjanov, A.A.Abduraximov, S.A.Abduraximov, A.X.Ataullayevlar tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mazkur olimlar va mutaxassislar tomonidan yuqori samarali usullardan foydalangan holda o‘simlik moylarini ishlab chiqarishning takomillashtirilgan texnologiyalari taklif qilingan. Soya, paxta va boshqa turdagi moyli o‘simliklardan foydalangan holda moylarni ishlab chiqarish muqobil texnologik sharoitlari ishlab chiqilgan. Keng turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun o‘simlik moylaridan oqilona va samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Biroq, mahalliy soya urug‘idan moy olish va uning sifatini oshirish, olinadigan mahsulotlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida ashyolarni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirishga kam e‘tibor qaratilgan. Yuqori ozuqaviy qiymatga ega bo‘lgan yuqori sifatli moylar olish uchun soyaning mahalliy navlarini qayta ishlashning ilmiy asoslangan texnologiyasi ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga soya urug‘lari navlaridan olinadigan rafinatsiyalangan o‘simlik moylarining sifati va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlariga texnologik omillarning ta‘siri o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Yuqori sifatli va oziq-ovqat xavfsizligiga ega moylarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha yangi ishlanmalar” (2022-2025y) amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy sharoitlarda yetishtirilgan soya urug‘laridan olingan moylarni rafinatsiyalash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy soya urug‘laridan olingan moy navlarining sifat ko‘rsatkichlari va fizik-kimyoviy tavsiflovchi xususiyatlarini aniqlash;

gidratatsiyalangan soya moylarini ishqoriy rafinatsiyalash texnologiyasini tadqiq qilish;

mahalliy soya moyini tozalash jarayonida yangi reagent sifatida natriy karbonatini qo‘llash;

xomashyoni ishqoriy rafinatsiyalash texnologiyasida soya moyining sifatini oshirish va ko'rsatkichlarini yaxshilashga elektromagnit maydoni ta'siri o'rganish;
soya moyini ishqoriy rafinatsiyalash texnologiyasi uchun yangi texnologik sharoitlarni ishlab chiqish;

soya moyini ishqoriy rafinatsiyalash texnologiyasi uchun yangi texnologiyasini yaratish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida soya urug'larining mahalliy navlari hamda ular asosidagi o'simlik moylarini gidratatsiyalash va moylarni rafinatsiyalash texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning predmetini eritmalarga elektromagnit maydon ta'sir ettirib, soya urug'lari mahalliy navlaridan olingan moylarini gidratatsiyalash va rafinatsiyalash texnologiyasi hamda olinadigan mahsulot sifati va xavfsizligi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotlarini amalga oshirishda zamonaviy fizik, kimyoviy va fizik-kimyoviy usullardan (IQ, GSX), shuningdek olingan tajriba ma'lumotlarini matematik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy soya urug'i moyini ishqoriy rafinatsiyalashning bosqichli qo'shma texnologiyasida 1,6 A/m kuchlanganlikdagi elektromagnit maydon ta'siridan foydalanib fosfolipidlarning maksimal chiqishi 0,27 % dan 0,15% ga va kislota soni 1,96 dan 1,91 mg.KOH/g gacha o'zgarishi isbotlangan;

mahalliy soya moyini tozalash jarayonida yangi reagent sifatida natriy karbonatini qo'llash natijasida og'ir tuzlar miqdori 0,03% gacha pasayishi ilmiy asoslangan;

xomashyoni ishqoriy rafinatsiyalash texnologiyasida soya moyining sifatini oshirish va ko'rsatkichlarini yaxshilashga elektromagnit maydonining ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan asoslangan;

soya moyini ishqoriy rafinatsiyalashda yangi reagent ta'sirida va elektromagnit maydonini qo'llash bilan takomillashtirilgan texnologiya yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xom soya moyini yangi turdagi reagentlar bilan elektromagnit maydonda faollashtirilgan suv bilan gidratatsiyalashning optimal texnologik sharoitlari ishlab chiqilgan;

soya moyini yangi turdagi reagentlar bilan ishqoriy rafinatsiyalashning kombinatsiyalangan texnologiyasi ishlab chiqilgan;

soya xomashyosini ishqoriy rafinatsiyalash yo'li bilan olingan moy sifatini oshirishga va yaxshilangan fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

soya moyini ishqoriy rafinatsiyalash jarayonlarida ishlab chiqarish unumdorligi oshirilgan va kamaytirilgan moddiy-texnologik xarajatlar me'yorlari ishlab chiqilgan;

soya moylarini ishqoriy rafinatsiyalash texnologiyasi bo'yicha amaldagi me'yoriy-texnologik hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xomashyo va olingan mahsulotlar sifatini baholashda fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari (GSX, IQ, YaMR, EMM)

qo'llanilganligi, tajriba-ishlab chiqarish sinovlari natijalari va ularning ishlab chiqarish sharoitida joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyat mahalliy soya urug'i moyini ishqoriy rafinatsiyalashning bosqichli qo'shma texnologiyasida elektromagnit maydon ta'siridan foydalanib fosfolipidlarning maksimal chiqishi isbotlanganligi, soya moyini tozalash jarayonida yangi reagent sifatida natriy karbonatini qo'llash natijasida og'ir tuzlar miqdori pasayishi ilmiy asoslanganligi, xomashyoni ishqoriy rafinatsiyalash texnologiyasida soya moyining sifatini oshirish va ko'rsatkichlarini yaxshilashga elektromagnit maydonning ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan asoslanganligi, soya moyini ishqoriy rafinatsiyalashning takomillashtirilgan texnologiyasi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini amaliy ahamiyati xom soya moyini yangi turdagi reagentlar elektromagnit maydonda faollashtirilgan suv bilan gidratatsiyalashning optimal texnologik sharoitlari ishlab chiqilganligi, soya moyini yangi turdagi reagentlar bilan ishqoriy rafinatsiyalashning kombinatsiyalangan texnologiyasi ishlab chiqilganligi, soya xomashyosini ishqoriy rafinatsiyalash yo'li bilan olingan moy sifatini oshirishga va yaxshilangan fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari ishlab chiqilganligi, soya moyini ishqoriy rafinatsiyalash jarayonlarida ishlab chiqarish unumdorligi oshirilganligi va kamaytirilgan moddiy-texnologik xarajatlar me'yorlari ishlab chiqilganligi, soya moylarini ishqoriy rafinatsiyalash texnologiyasi bo'yicha amaldagi me'yoriy-texnologik hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy soya moylarini rafinatsiyalash texnologiyasini yangicha usullarda takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

soya moyini ishqoriy rafinatsiyalashning qo'shma texnologiyasi "Qarshi yog'-ekstraksiya" AJ da amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi yog'-moy sanoati korxonalarini uyushmasining KS/3-41-son ma'lumotnomasi). Natijada, mahalliy soya moyini tozalash jarayonida yangi reagent sifatida natriy karbonatni qo'llash natijasida og'ir tuzlarning miqdorini 0,03% gacha pasaytirish imkonini bergan;

elektromagnit maydonli ishqoriy rafinatsiyalash texnologiyasi "Qarshi yog'-ekstraksiya" AJ da amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi yog'-moy sanoati korxonalarini uyushmasining KS/3-41-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqarish sharoitida material texnologik sarflarni kamaytirishga, mahsulot sifatini va chiqimini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ilmiy tadqiqot natijalari bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shu jumladan 3 ta xorijiy va 1 ta milliy jurnallarda chop etilgan.


Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va muhimligi asoslab berilgan, tadqiqot maqsad va vazifalari, shuningdek, ob‘ekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiya rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ishlanmalarni ishlab chiqarishda joriy qilinishi natijalari, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Moyli urug‘lar, ularning tavsifi va tarkibi, xom o‘simlik moylarini tozalash usullari**» deb nomlangan **birinchi bobda** O‘zbekiston Respublikasida moyli urug‘larni yetishtirish va o‘simlik moylarini ishlab chiqarish holati, soya urug‘i, uni yetishtirish va foydalanish, moyli urug‘lardan o‘simlik moylari ishlab chiqarish usullari, o‘simlik moylarini ishlab chiqarish uchun press usuli, o‘simlik moylarini ishlab chiqarish uchun ekstraksiya usuli, xom o‘simlik moylarini dastlabki va oxirgi tozalash usullari, o‘simlik moylarini dastlabki tozalash va rafinatsiyalash usullari, o‘simlik moylarini ishqoriy rafinatsiyalash texnologiyalari, o‘simlik moylarini tozalash jarayonida yo‘ldosh moddalarni o‘rni va ahamiyati, moy olish bosqichida yog‘larni qisman rafinatsiyalash texnologiyasi, yog‘ va moylar ishlab chiqarishda elektrofizik usullar, tadqiqot maqsadlari va vazifalari izohlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Tadqiqot ob‘ektlari, tajriba o‘tkazish usullari, tadqiqot usullari**” deb nomlangan. Eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish uchun boshlang‘ich xomashyo sifatida 2022-2024 yillarda O‘zbekistonning g‘arbiy va janubiy viloyatlarida yetishtirilgan soya urug‘laridan foydalanildi.



a-urug‘ning umumiy ko‘rinishi: 1-urug‘ qovurg‘asi, 2-mikropilar teshik (ko‘pincha o‘sib chiqadi), 3— tikuv;
b — urug‘ qobig‘ining tuzilishi: 1 — palisade epidermis, 2 — gipoderma, 3 — katta hujayrali shimgichli to‘qima, 4-ozqlantiruvchi to‘qima, 5 va 6 — aleyron qatlami, 7-endosperm qoldiqlari; v-soya urug‘lari va mevalari.

1-rasm. Soya o‘simligi va urug‘ining ko‘rinishi

Eksperimental tadqiqotlar laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida o‘tkazildi. O‘zbekistonda moyli soya urug‘larini bir nechta navlari yaratilib, ishlab chiqarish sharoitida keng hajmda tayyorlanilmoqda.

Shu sababli mahalliy moyli soya urug‘larini fizik-kimyoviy tasniflarini o‘rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlarda xomashyo sifatida turli navli mahalliy soya urug‘lari ishlatildi. Moyni qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha tajribalar o‘tkazish davrida ishlatiladigan soya urug‘lari va xom o‘simlik moylarining sifat ko‘rsatkichlari 1 va 2-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Mahalliy soya urug'ining sifat ko'rsatkichlari


Urug'ning navi	Sifat ko'rsatkichlari			
	Namligi, %	Iflosligi, %	Yog'dorligi, %	Urug'dagi moyning kislota soni, mg KOH/g
"Madaniyat-114"	7,8-9,1	2,3-2,5	26,8-27,1	2,41-3,01
G'allaorol navi	8,1-10,5	3,1-3,6	28,9-31,0	2,56-4,06

2-jadval

Mahalliy soya urug'ining kimyoviy tarkibi

Tarkibi, %	Urug'ning navi			
	"Madaniyat-114"		G'allaorol navi	
	urug'da	yadroda	urug'da	yadroda
Lipidlar	36,8-39,7	59,1-61,3	36,9-40,1	60,7-63,9
Oqsillar (Nx6,25)	15,4-16,3	24,5-27,3	16,4-16,9	24,9-25,7
Kul	2,1-2,6	1,9-2,3	2,7-3,1	2,5-3,0


Mahalliy sharoitlarda yetishtirilgan moyli soya urug'lari yuqori darajaga yog'dorligi, hamda yog'-kislota tarkibi, fosfolipidlar miqdori bilan an'anaviy urug'lardan farqlanishi aniqlandi va baholandi. Soya xomashyosini suyultirilgan soda va kalsiy xlorid eritmalari bilan oldindan qayta ishlash bo'yicha laboratoriya tajribalari maxsus metall idishda o'tkazildi (2-rasm).



1. Xomashyo uchun sig'im
2. Elektrodvigatel
3. Na_2CO_3 eritmasi uchun sig'im
4. CaCl_2 eritmasi uchun sig'im
5. Termometr
6. Elektromotor
7. Elektrqizdirgich
8. Shtativ
9. Suvli hammom
10. Elektromagnit uskuna
11. Rektifikator

2-rasm. Xomashyoda moyni qisman qayta ishlash va moyni yakuniy rafinatsiyalash laboratoriya qurilmasi

Yanchilmada moyni qisman rafinatsiyalash texnologiyasini ishlab chiqarish sharoitida va uni korxonada amaliyotga tatbiq etish uchun, EMMda oldindan faollashtirilgan 9...10 konsentratsiya va 80...85⁰C gacha qizdirilgan sodali suv eritmasi, yanchilma namligini 9,5...11,7 % gacha oshirish uchun zarur bo'lgan miqdorda bug'lash va namlash shnegiga kaustik soda eritmasi uchun sig'im (20) dan purkagich yordamida yuborilgan. Qisman rafinatsiyalangan moyni yakuniy rafinatsiyalash aralastirgich bilan ta'minlangan neytralizator (3-rasm) da olib borildi.



1. NaOH eritmasi uchun idish;
2. Neytralizator;
3. Elektromagnit qurilma;
4. Tok rektifikatori;
5. Elektr motor; 5a. Patrubok;
6. Reduktor;
7. Aralashtirgich;
8. Sovutgichlar;
9. Rafinatsiyalangan moy uchun idish;
10. Soapstok uchun idish;
11. Sovutgich-isitgich.

3-rasm. Qisman rafinatsiyalangan soya moyini yakuniy rafinatsiyalash va ishqorni aktivlashtirish texnologik sxemasi

Past kislotali moylar va ulardagi erkin yog‘ kislotalarini sodali suv eritmasi bilan neytrallash quyidagi kimyoviy o‘zgarishlar va reaksiyalar bilan bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:



Past va yuqori kislotali moylar va ulardagi erkin yog‘ kislotalarini o‘yuvchi natriy eritmasi bilan neytrallash quyidagi reaksiya bo‘yicha sodir bo‘ladi:




Ikkala holatda ham neytrallanish jarayonlari ishqorlar ($\text{Na}+\text{OH}^-$) va erkin yog‘ kislotalarining (RCOO^- va H^+) elektrolitik xususiyatlari natijasida yuzaga keladi:




Shu sababli, natriy karbonat va gidroksidning elektrolitik va elektrofizik xususiyatlarini baholash keltirilgan.

Tadqiqotlarni olib borish uchun boshlang‘ich xomashyoni suv va natriy karbonatning faollashtirilgan eritmalari bilan birgalikda gidratatsiyalash va rafinatsiyalashning yangi texnologiyasi taklif qilindi. Ushbu texnologiyani tanlash va tajriba tadqiqotlarini o‘tkazish texnologik yo‘qotishlarni qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish (ayniqsa kamyob natriy gidroksid) va rafinatsiyalangan moy sifatini oshirish zarurati bilan bog‘liq. Xom soya moyini rafinatsiyalash texnologik bosqichlari va jarayonlari nazorati 4 va 5-rasmlarda keltirilgan.



4-rasm. Xom soya moyini gidratatsiyalash texnologik bosqichlari




5-rasm. Gidratatsiyalangan soya moyini ishqoriy neytrallash texnologik bosqichlari

Xom soya moyini faollashtirilgan suv eritmasi bilan gidratatsiyalash boshlang'ich xomashyodagi fosfolipidlar miqdorini ularning boshlang'ich miqdoridan 45-50% ga kamayguncha amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi «EMM faollangan eritmalar bilan xomashyolarda moyni qisman taytalash texnologiyasini tadqiqot va ishlab chiqish»** deb nomlangan. Biz soya urug'i yanchilmasini namlik-issiqlik bilan ishlov berish, pulpani qovurish va presslash jarayonida EMMda faollashtirilgan soda va kalsiy xlorid eritmalaridan foydalangan holda moyni qisman qayta ishlashning takomillashtirilgan texnologiyasi taklif qilindi va ishlab chiqildi.

EMM bilan faollashtirilgan soda eritmasi ta'sirida yanchilmadagi moyni qisman qayta ishlash orqali soya urug'ini oldindan qayta ishlashning innovatsion texnologiyasini ishlab chiqish va tadqiq qilish oraliq mahsulotning kimyoviy tarkibi va sifatidagi asosiy o'zgarishlarni o'rganish imkonini berdi. Yanchilma moyini EMMda faollashtirilgan eritmalar bilan qisman qayta ishlash jarayonida asosiy kimyoviy va sifat o'zgarishlari o'rganildi. Yanchilma moyini qisman qayta ishlash jarayonida kislota miqdorini kamaytirishga sodali suv konsentratsiyasining ta'siri o'rganildi. O'rtacha yog' kislotasi qiymati 1,0, 1,5, 2,0, 2,5, 3,0 va 4,0 mg KOH/g bo'lgan soya urug'larining jamlamalari o'rganildi. Tadqiqotlar Na₂CO₃ soda eritmasining miqdori barcha holatlarda doimiy bo'lgan va eritmadagi soda konsentratsiyasi har xil bo'lgan sharoitlarda o'tkazildi. Qisman qayta ishlash jarayonida yanchilma moyining kislota sonini kamaytirish bo'yicha tadqiqot natijalari 6-rasmida ko'rsatilgan.



6-rasm. Qisman qayta ishlash jarayonida sodali suv konsentratsiyasining yanchilma moyining kislota sonini kamaytirishga ta'siri

1. K.c. = 1,0 mg KOH/g; 2. K.c. = 1,5 mg KOH/g; 3. K.c. = 2,5 mg KOH/g; 4. K.c. = 3,5 mg KOH/g; 5. K.c. = 4,5 mg KOH/g

Na₂CO₃ eritmasining konsentratsiyasi

Urug'lardagi moyning dastlabki kislota soni:

6-rasmda ko'rsatilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sodali suv konsentratsiyasining ortishi bilan yanchilma moyidagi yog'ning kislota soni kamayadi. 5...15% oralig'ida sodali eritmaning konsentratsiyasigacha kislota sonining kuchli pasayishi kuzatildi. Ishqoriy eritmani qayta ishlashning EMM usulisiz va uni qo'llanmasdan, xomashyo tarkibidagi moyni qisman qayta ishlash bo'yicha qiyosiy ma'lumotlarni olish uchun shunga o'xshash tadqiqotlar olib borildi. Yanchilmadagi dastlabki kislota soni har xil bo'lgan ikkita xomashyo moyli namunasi o'rganildi. Tadqiqot natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval


Xomashyo tarkibidagi qisman tozalangan moy tarkibidagi kislota sonini kamaytirishning qiyosiy natijalari *

EMMda kuchlanganligi, A/m	Moyning kislota soni, mg KOH/g			
	Namuna- 1		Namuna- 2	
	EMM da ishlov berish dan oldin	EMM da ishlov berilgan	EMM da ishlov berish dan oldin	EMM da ishlov berilgan
0	3,0	3,0	4,5	4,5
0,4	3,0	2,8	4,4	4,0
0,8	2,7	2,4	4,1	3,7
1,2	2,5	2,0	3,8	3,3
1,6	1,6	1,4	2,5	2,1
2,0	1,4	1,3	2,3	1,9
2,4	1,3	1,2	2,2	1,8

*O'rganilgan yanchilma namunalarda moyning dastlabki kislota soni:

1-3,0 mg KOH/g; 2 – 4,5 mg KOH/g/

Tadqiqot natijalari 7-rasmda ko'rsatilgan.



7-rasm. Qisman tozalangan yog kislotalari sonining kamayishining EMM intensivligiga bog'liqligi

Qisman tozalangan moyda kislota sonini kamaytirish jarayoni sodali suv konsentratsiyasi bilan bir vaqtda ma'lum darajada uning isishi haroratiga ta'sir

qiladi. Shuning uchun xomashyo tarkibidagi moyning boshlang'ich kislota soni bilan qisman tozalangan soya urug'i moylarining kislota miqdorining kamayishiga 10% konsentratsiyali faollashtirilgan soda eritmasining harorati (60...95⁰C) ta'sirini o'rganildi (material 3,0...4,5 mg KOH/g).

EMM intensivligining (0,4...2,4 A/m) xomashyoda qisman qayta ishlash jarayonida xomashyo press moyidagi fosfatidlar tarkibining o'zgarishiga ta'siri 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Qisman tozalangan moy tarkibidagi fosfatidlar tarkibiga magnit maydon kuchining ta'siri

Elektromagnit maydoni kuchlanganligi, A/m	Fosfatidlar miqdori, %
0 (namuna)	1,32
0,4	0,95
0,8	0,80
1,2	0,59
1,6	0,30
2,0	0,27
2,4	0,25

8-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 1,6 A/m EMM intensivligida fosfatidlar tarkibining intensiv pasayishi sodir bo'ladi, uning keyingi ko'payishi fosfatidlar miqdorining kamayishiga amalda ta'sir qilmaydi. Xomashyoda moyni faollashtirilgan soda eritmasi bilan qisman qayta ishlash texnologiyasi, shuningdek, soya moyining triatsilgliseridlaridagi yog' kislotalarining tarkibiga ozgina ta'sir qiladi (5-jadval).

5-jadval

Ishqor faollashuvining soya moyini uchatsilglitseridlaridagi yog' kislotalari tarkibiga ta'siri

Yog' kislotalari	EMMda ishlov berilmagan				EMMda ishlov berilgan			
	Namunalar							
	1	2	3	4	1	2	3	4
16:0	22,5	22,0	21,2	22,1	22,5	22,0	21,2	21,1
18:0	3,5	3,0	2,9	2,8	3,2	2,8	2,7	2,7
18:1	21,0	21,4	21,6	21,9	20,4	20,0	20,2	19,6
18:2	53,0	53,6	54,3	55,2	53,9	55,2	55,9	56,6
Σ to'y.	26,0	25,0	24,1	23,8	25,7	24,8	2,9	23,8
Σ to'yinmagan.	74,0	75,0	75,9	77,1	74,3	75,2	76,1	76,2

5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, moyning triatsilgliseridlaridagi qisman o'zgarishlar di- va mono to'yinmagan yog'li kislotalar va stearin kislota tarkibida sodir bo'ladi. Tadqiqot sharoitlariga ta'sir qiluvchi ko'plab o'zgaruvchilar mavjudligi va ular o'zaro bog'liqligi sababli biz optimallashtirish usullaridan foydalanishga va har bir omilning jarayonga ta'sir darajasini aniqlashga qaror qildik. Optimallashtirish mezoni sifatida biz namlik-

issiqlik bilan ishlov berish, qovurish va presslash jarayonida xomashyo tarkibidagi qisman tozalangan moyning kislota sonini kamaytirishni qabul qildik, bu yakuniy bosqichda standart ko'rsatkichlarga ega yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ta'minlaydi. moyni qayta ishlash. Xom moyning kislota sonini kamayishi bog'liq bo'lgan javob funksiyalari yoki omillar to'plami quyidagicha edi:

X_1 - sodali eritmaning harorati, °C;

X_2 - sodali eritmaning konsentratsiyasi, %;

X_3 - CaCl_2 eritmasining miqdori, l;

X_4 - sodali suv bilan ishlov berishning EMM intensivligi, A/m.

Laboratoriya tadqiqotlari asosida omillarning darajalari va ularning o'zgarish diapazoni 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

Omillar darajalari va ularning o'zgaruvchanlik diapazoni

Faktorlar	Asosiy daraja (nol)	O'zgaruvchanlik birligi	Pastgi daraja	Yuqoi daraja
$X_1, ^\circ\text{C}$	80	10	70	90
$X_2, \%$	10	5	5	15
X_3, l	16	4	12	20
X_4, min	1,6	0,4	1,2	2,0

Biz to'liq faktorli tajribaning 1/2 nusxasidan foydalandik.

Tadqiqotlar ikkita parallel eksperimentda randomizatsiyalangan matritsaga muvofiq amalga oshirildi. Eksperimentlarni o'tkazish tartibi va ularning natijalari xom press moyining kislota sonini kamaytirish uchun 7-jadvalda keltirilgan. Olingan natijalar regressiya tenglamasi shaklida taqdim etildi:

$$Y = 4,06 - 0,19X_1 - 0,20X_2 + 0,14X_3 - 0,06X_4 - 0,02X_1X_2 + 0,01X_1X_3 + \dots \quad (5)$$

Bu yerda $B_0, B_1 \dots B_4$ regressiya koeffitsientlari bo'lib, ular tegishli formulalar yordamida hisoblanadi. Regressiya tenglama koeffitsientlarining dispersiyasini topish uchun ushbu parametrlar hisoblab chiqilgan. Regressiya koeffitsientlarining ahamiyati Styudenta-Fisher testi yordamida $f=8$ (ya'ni sakkizta erkinlik darajasi uchun) va muhimlik darajasi $\alpha = 0,95$ da baholandi. Keyin $B=0$ da regressiya tenglamasini oldik:

$$u = 4,06 - 0,19X_1 - 0,2X_2 + 0,14X_3 - 0,06X_4 \quad (6)$$

Shunday qilib, regressiya tenglamasida barcha omillar muhim bo'lib chiqmadi. Ularning miqdoriy hissasiga qarab, omillar quyidagi tartibda joylashtirilgan:

$$X_3 > X_4 > X_1 > X_2 \quad (7)$$

Olingan regressiya tenglamasining haqiqiy javob yuzasiga muvofiqligini tekshirish uchun F - mezonlari hisoblab chiqilgan va jadvaldagi qiymatlar bilan solishtirilgan. Shu maqsadda qoldiq dispersiya aniqlandi. Jadval qiymatlari $R=0,95=18,5$ [105], ya'ni $F_{\text{pacm}} < F_{\text{jad}}$, natijada olingan tenglama haqiqiy javob yuzasiga mos kelishini ko'rsatadi. Eng yaxshi natijalar 3, 4 va 5-tajribalarda

olingan. Laboratoriya ma'lumotlariga yuqorida keltirilgan matematik ishlov berish tajribalar sonini kamaytirish va texnologik jarayonning o'rganilayotgan parametrlari uchun omillarning ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

7-jadval

Tasodifiy tajriba matritsasi *

№	X ₀	X ₁	X ₂	X ₃	X ₄	X ₁ X ₂ =X ₃ X ₄	X ₁ X ₃ = X ₂ X ₄	X ₂ X ₃ = X ₁ X ₄	Y ₁	Y ₂	Y _{o'r}	Y _{vbich}
1	+	+	+	-	-	+	-	-	3,87	3,89	3,88	3,69
2	-	-	-	-	-	+	+	+	4,69	4,70	4,69	4,69
3	+	+	-	-	+	-	-	+	3,85	3,85	3,85	3,87
4	+	-	+	-	+	-	+	-	3,81	3,84	3,82	3,87
5	+	+	+	+	+	+	+	+	3,75	3,76	3,75	3,75
6	+	-	-	+	+	+	-	-	3,94	3,96	3,95	3,95
7	+	+	-	+	-	-	+	-	4,53	4,51	4,52	4,49
8	+	-	+	+	-	-	-	+	4,01	4,00	4:00	3,97
V	+4,06	-0,19	-0,20	+0,14	-0,06	-0,02	+0,01	+0,01				

* Xomashyo tarkibidagi qora moyning dastlabki kislota soni 7,7 mg KOH/g

Natriy gidroksid eritmasi konsentratsiyasining rafinatsiyalangan soya moyining sifat ko'rsatkichlari va chiqishiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotlar laboratoriya sharoitida 10-rasmda ko'rsatilgan qurilmada o'tkazildi. Gidratatsiyalangan forpress soya moylarining namunalari o'rganildi (8-jadval). Moy 22-25°C haroratda, reaksiyon massani 90 sekund davomida aralashtirish bilan rafinatsiyalandi. Natriy gidroksidning eritmasi ortiqcha miqdori forpress moy uchun 30% ni tashkil qildi. Tajriba tadqiqotlar natijalari 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

Natriy gidroksid eritmasi quyuqligining rafinatsiyalangan va gidratatsiyalangan forpress moy ko'rsatkichlariga ta'siri

NaOH eritmasi quyuqligi, g/l	Rafinatsiyalangan moy ko'rsatkichlari		
	Kislota soni, mg KOH/g	Ranglilik, 13,5 sm qatlamda 35 sariq birlikda qizil birlik	Boshlang'ichga nisbatan moy chiqimi, %
0 (nazorat)	2,3	15	-
125	1,65	11	93
150	0,67	13	91
175	0,31	8	90
200	0,17	6	89
225	0,13	4	86

9-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish natriy gidroksid eritmasining ortiqcha miqdori ham rafinatsiyalangan moy ko'rsatkichlariga ta'sir qilishini ko'rsatadi. Eng sezilarli natijalarga forpress moylari uchun ishqor ortiqcha miqdorining mos ravishda 40% qiymatida erishiladi. Ishqor ortiqcha miqdorining ushbu qiymatlardan yuqori oshirilishi gidratatsiyalangan moylarni ishqoriy rafinatsiyalash jarayoniga kam ta'sir qiladi. Bunda gidratatsiyalangan soya moyini rafinatsiyalash texnologiyasida natriy gidroksid miqdorining sezilarli darajada kamaytirishga erishiladi.




9-jadval

Gidratatsiyalangan xom forpress soya moylarini ishqoriy rafinatsiyalash natijalari

Gidratatsiyalangan moy ko'rsatkichlari		Rafinatsiyalangan moy ko'rsatkichlari				
Kislota soni, mg KOH/g	Ranglilik, 1 sm qatlamda 35 sariq birlikda qizil birlik	Rafinatsiyalash sharoitlari		Kislota soni, mg KOH/g	Ranglilik, 13.5 sm qatlamda 35 sariq birlikda qizil birlik	Boshlang'ich xom-ashyoga nisbatan chiqimi, %
		NaOH eritmasi quyuvqligi, g/l	Ishqorning ortiqcha miqdori %			
1,6	11	70	10	0,07	4	98
2,0	13	80	10	0,11	4	98
3,7	17	95	17	0,17	5	95
4,4	19	110	20	0,26	7	90
6,0	21	170	26	0,33	11	87
7,3	34	250	5	0,41	23	83

Olingan natijalarni inobatga olgan holda, turli boshlang'ich xususiyatlarga ega bo'lgan gidratatsiyalangan soya moylarini ishqoriy rafinatsiyalash bo'yicha ko'plab tajribalar o'tkazildi. Bunda barcha holatlarda harorat (22°C) va aralashtirish davomiyligi (90 s) doimiy bo'lgan. Jarayon haroratining fosfolipidlarni ajratib olish samaradorligiga ta'sirini o'rganish moyning massasidan 0,1% miqdorida 1:1 nisbatda limon va olma kislotalari aralashmasidan foydalangan holda amalga oshirildi. Jarayon harorati 50-80 °C oralig'ida o'zgartirildi, chunki ma'lumki, 50 °C dan past haroratlarda yuqori qovushqoqlik xususiyatlari tufayli moy-suv tizimini ajratish qiyin, 80 °C dan yuqori haroratlarda esa fosfolipidlarning eruvchanlik darajasi oshadi va tizim ajratilganda olib tashlash samaradorligi pasayadi.

Limon va olma kislotalarni kiritishda fosfolipidlarning agregatsiya qobiliyati 8-rasmda ko'rsatilgan.



8-rasm. Faollashtirilgan suvni qo‘llashda fosfolipidlarning agregatsiya qobiliyati

Barqaror fosfolipid komplekslarini hosil qilish va ularning suvli fazaga o‘tishi uchun zarur bo‘lgan eng yaxshi ajratish vaqtini aniqlash maqsadida soya moyining sifatli suv bilan 1:1 nisbatida moyning massasidan 0,10% miqdorida va gidratlash jarayonining 68 °C haroratida o‘zaro ta’sirlashish vaqtining ta’sirini o‘rganildi. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fosfolipidlarni ajratib olish eng yaxshi 93% natijasiga 30 daqiqali ajratish vaqtida erishiladi.

Dissertatsiyaning **to‘rtinchi bobi “Ishlab chiqarish sharoitlarida soya moylarini gidratatsiyalash va ishqoriy rafinatsiyalash”** deb nomlangan.

Tajriba-ishlab chiqarish sinovlarida xom soya moylarini faollashtirilgan natriyli suv bilan gidratatsiyalash, so‘ngra olingan moylarni natriy gidroksid eritmasi bilan ishqoriy rafinatsiyalash texnologik jarayonlari o‘rganildi. Tadqiqotlar elektromagnit maydonda ishqoriy eritmalar bilan ishlov berish, ham ishlov berilmagan holda amalga oshirildi. Soya moyini gidratatsiyalash texnologiyasining tajriba-ishlab chiqarish sinovlari natijalari 10-jadvalda keltirilgan. Keltirilgan ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba-ishlab chiqarish sharoitlarida xom moyning gidratatsiyalanishi laboratoriya tadqiqotlarida o‘tkazilgan sharoitlardagi kabi boradi. Biroq, bu holda, olingan moylarning fizik-kimyoviy xususiyatlari laboratoriya tadqiqotlari ma’lumotlaridan biroz farq qiladi.

Tajriba-ishlab chiqarish sinovlarida xom forpress soya moyini gidratatsiyalash natijalari

Fizik-kimyoviy tavsifi			Gidratatsiyalangan moy chiqishi, %
Kislota soni, mg KOH/g	Ranglilik, 1 sm qatlamda 35 sariq birlikda qizil birlik	Fosfolipidlar miqdori, %	
2,1	8	0,29	97
2,8	11	0,42	95

Rafinatsiyalangan soya moylari sinov namunalari fizik-kimyoviy tavsifi

Fosfolipid konsentratlar miqdori, %	FL:YoK nisbati
Forpress moyi	
41,4	1:1
40,1	1:1

Keltirilgan ma'lumotlar qisman gidratatsiyalangan moylarning fosfolipidlari yog' kislotalariga nisbati bo'yicha laboratoriya tajribalari natijalariga mos kelishini ko'rsatadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, barcha fosfolipidlar moylardan ajratiladigan konsentratlarga o'tadi.

Shunday qilib, tajriba-ishlab chiqarish sinovi xom soya moylarini faollashtirilgan suv eritmasi bilan gidratatsiyalash bo'yicha laboratoriya natijalarining ishonchligini tasdiqladi.

$$\mathcal{E} = [(\Pi_2 - \Pi_1) - E_H (K_2 - K_1)] / A; \quad (8)$$

bu yerda Π_2 va Π_1 – ishlanmani joriy etishdan oldin va keyin mahsulotlarni sotishdan foyda, ming so'm;

K_2 va K_1 – ishlanmani joriy etishdan oldin va keyin kapital sarmoyalar, ming so'm;

E_H – kapital sarmoyalar samaradorligining me'yoriy koeffitsienti (bizning holatimizda $E_H = 0,15$);

A – mahsulot chiqarish yillik hajmi, t;

Innovatsion ishlab chiqilgan texnologiyani joriy etish natijasida olinadigan foyda qo'shimcha foydaga ($\Delta\Pi$) tenglashtirilishi mumkin. Bundan tashqari, EM ishlov berishdan foydalanilganda energiya sarfi oshishi olinadigan fosfolipidlarni quritish uchun bug' va suv sarfini tejash bilan qoplanadi. Demak, EM ishlov berish yordamida soya moyini gidratatsiyalash ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyasini joriy etishdan iqtisodiy samara (E) quyidagini tashkil qiladi:

$$E = 8544 - 0,15 \cdot 10000 = 8544 - 1500 = 7044 \text{ ming so'm}$$

XULOSALAR

1. Mahalliy soya urug'larini texnologik tasniflari hamda ulardan olingan moyni sifat ko'rsatkichlari va fizik-kimyoviy tasniflari aniqlandi. Mahalliy soya urug'larini qayta ishlash texnologiyalari hamda ulardan olingan xom o'simlik moyini ishqoriy rafinatsiyalashning innovatsion usullari yaratildi.

2. Mahalliy soya navlaridan olingan xom moylarining tavsiflovchi ko'rsatkichlari bo'lib, fosfolipidlar miqdori (1,35-2,57 %), kislota soni (0,56-3,1 mg KOH/g) va ranglilik (17-21 qizil birlik) hisoblanadi. Soya moyini ishqoriy rafinatsiyalashning bosqichli texnologiyasida 1,6 A/m kuchlanganlikdagi elektromagnit maydoni ta'siridan foydalanish fosfolipidlarning maksimal chiqishini (0,15-0,17%) ta'minlaydi va kislota sonini 0,15-0,19 mg.KOH/g gacha pasaytiradi.

3. Mahalliy soya moyini ishqoriy rafinatsiyalash darajasi ishlatiladigan suvning miqdoridan, faollashtirilgan natriy gidroksid eritmasi quyuqligidan (11-17%) va uning ortiqcha miqdoriga (20-30%) bog'liq bo'ladi. Mahalliy soya moyini ishqoriy rafinatsiyalash texnologiyasida faollashtirilgan reagentlarning yangi turlarini qo'llash moyini sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va yakuniy mahsulot chiqishini oshirish (97,3-98,6%) imkonini berdi.

4. Turli navli urug'larni qayta ishlash natijasida olingan soya moyini qisman va yakuniy rafinatsiyalashning optimal texnologik sharoitlari aniqlandi. Aniqlangan optimal sharoitlarning ishonchliligi tajriba ishlab chiqarish sinovlari uchun tavsiya etilgan eksperimental ma'lumotlarni statistik qayta ishlash va optimallashtirish usullari bilan isbotlangan.

5. Soya moylarini ishqoriy neytrallashtirish yo'nalishlari bo'yicha nazariy mavjud tushunchalar kengaytirildi. Fosfolipidlar, bo'yoqlar, tokoferollar va uning hosilalari miqdorini kamaytirish mexanizmlari va kimyoviy reaksiyalari asoslangan.

6. Yangi ilmiy-texnologik ishlanmalarni tajriba-sanoat sinovlari va ularni natijalarini joriy etish moddiy-texnologik xarajatlarni 1,7% ga qisqartirish imkoniyati yaratilgan.

7. Yog'-moy korxonasi sharoitida yangi ilmiy-texnikaviy ishlanmalar natijalarini joriy etish moddiy-texnologik xarajatlarni 5-7% ga kamaytirishni, rafinatsiyalangan moylar chiqishini 1,7-3,2 % ga oshirishni ta'minladi. Natijada yiliga 101,68 mln. so'mlik iqtisodiy samaraga erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/28/02/2022.Т.101.01 ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ДЕНОВСКИЙ ИНСТИТУТ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И
ПЕДАГОГИКИ**

ЁРОВ КАМОЛИДДИН БЕГАЛИЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ РАФИНАЦИИ МЕСТНЫХ
СОЕВЫХ МАСЕЛ НОВЫМИ СПОСОБАМИ**

**02.00.17- Технология и биотехнология обработки, хранения и переработки
сельскохозяйственных и пищевых продуктов**

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации
доктора философии (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/T4608.

Диссертация выполнена в Деновском институте предпринимательства и педагогики.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.bstu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Исмаатов Суннатулло Шамсуллаевич
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Махмудов Рафик Амонович
доктор технических наук, профессор

Салиханова Дилноза Саидакбаровна
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Гулистанский Государственный Университет

Защита диссертации состоится «06» 12 2025 г. в 09⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/28.02.2022.T.101.01 при Бухарском государственном техническом университете по адресу: 200117, г. Бухара, ул. К.Муртазаева, дом 15. Тел.:(+99865)223-74-84, факс: (+99865) 223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного технического университета (зарегистрированного за № 397). (Адрес: 200117, г.Бухара, ул. К.Муртазаева 15. Тел.: (+99865)223-78-84).

Автореферат диссертации разослан «22» 11 2025 года.
(реестр протокола рассылки №9 от «21» 06 2025 г.).



С.Ф.Фозилов
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

А.Т. Олтиев
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, доцент

И.Б.Исабаев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сегодня во всём мире растёт потребность в растительных маслах. В этом направлении большое внимание уделяется производству масла из соевых бобов, особенно из сортов, выращенных в местных условиях. Поэтому актуальным является совершенствование технологий и процессов получения растительных масел из различных видов масличного сырья, а также повышение качества и обеспечение пищевой безопасности данной продукции.

